

KORXONANING ISHLAB CHIQRISH DASTURINI TUZISH

Ergashov Rahmatulla

Tojiddinov Sardor

Sharipov Shohjahon

*Guliston davlat universiteti Menejment
yo`nalishi talabalari*

Turayeva Gulizahro

Guliston davlat universiteti o`qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi korxonaning ishlab chiqarish dasturini tuzishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Ishlab chiqarish dasturi — bu korxonaning belgilangan davr mobaynida ishlab chiqarishi rejalashtirilgan mahsulot turlari, hajmi va muddatlarini ifodalovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mazkur mavzu doirasida ishlab chiqarish dasturining mazmuni, shakllanish bosqichlari, rejalashtirish usullari hamda resurslar bilan ta'minlanishi masalalari ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** ishlab chiqarish dasturi, rejalashtirish, mahsulot hajmi, ishlab chiqarish quvvati, resurslar taqsimoti.*

KIRISH

Iqtisodiyotni rivojlantirishda sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarini puxta tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot tannarxini nazorat qilish bugungi raqobatbardosh iqtisodiy sharoitda har bir korxonaning asosiy vazifasiga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, korxonaning ishlab chiqarish dasturini tuzish — bu faqatgina texnik-iqtisodiy masala bo'lib qolmay, balki strategik boshqaruvning ajralmas elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish dasturi bu — ma'lum bir vaqt oralig'ida (oy, chorak, yil) ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulotlar hajmi, assortimenti va ishlab chiqarish muddatlarini belgilovchi asosiy hujjatdir. Mazkur dastur ishlab chiqarish jarayonining butun tashkiliy tuzilmasini shakllantiradi, ya'ni ishlab chiqarish quvvatlarining yuklanishini, ishchi kuchi va xomashyo zaxiralarining taqsimlanishini belgilaydi. Shu bois, uni to'g'ri tashkil etish korxonaning umumiy iqtisodiy holatiga, moliyaviy barqarorligiga va bozor sharoitida raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish dasturi ishlab chiqarish va mahsulot sotishning yillik hajmi, nomenklaturasi, tovarlar va xizmatlar bozori talab kilgan sifat va muddatni tavsiflovchi kengrejani o'zida namoyon etadi. Iqtisodchilar bilan tuzilgan shartnomalari buyurtmalarning mavjud portfeli va tovarlarga bo'lgan mavjud extiyoj, shuningdek

talabning joriy qonunlari va mahsulotga, ishlarga va xizmatlarga bo‘lgan takliflar korxonada ishlab chiqarish dasturining asosini tashkil etadi.

1-jadval

Ishlab chiqarish dasturi jadvali

Mahsulot nomi	Rejalashtirilgan hajmi (dona)	Bir dona uchun sarf (so‘m)	Umumiy qiymat (so‘m)	Muddati
Mahsulot A	1000	5000	5 000 000	Yanvar
Mahsulot B	500	8000	4 000 000	Fevral
Mahsulot C	700	6500	4 550 000	Mart
Jami	2200		13 550 000	

Ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqishda turli uslublar: darajali taxminlash, rejalar tuzish, chiziqli dasturlash, mahsulotlar va boshqalarni diversifikatsiyalash (ko‘p tarmoqlarga aylantirish) qo‘llanilishi mumkin.

Darajali taxminlash sotishlar va foydaning kutilgan hajmini uch nuqta: maksimal, ehtimol, minimal nuqtalari bo‘yicha oldindan to‘liq jarayonini namoyon etadi.

1) rejali muqobillar miqdori oshishiga va ehtimol tutilgan salbiy oqibatlarga tayyorlanishga yordam beradi;

2) ko‘rsatmalar real ahamiyatini namoyon etadi, bu chala asoslangan loyihalar tuzishdan chetlab utishga imkon tugdiradi;

3) erta ogoxlantirish yoki vaziyatli rejalar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi, bu korxonada faoliyatining rejaviy va haqiqiy ko‘rsatkichlari pasayishini oldini oladi.

Vaziyatli rejalashtirish rejalashtirishning ancha samarali uslubi hisoblanib, quyidagi tartibda bajariladi:

2-jadval

Buxgalteriya provodkalari

Sana	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit	Summasi (so‘m)
2025.01.10	Ishlab chiqarish uchun xomashyo ajratildi	20 10	10 10	3 000 000
2025.01.15	Ishchilar ish haqi hisoblandi	20 10	70 10	1 500 000
2025.01.25	Ijtimoiy ajratmalar hisoblandi	20 10	65 00	500 000
2025.01.30	Mahsulot A ishlab chiqarildi (tayyor mahsulot)	21 10	20 10	5 000 000
2025.02.10	Mahsulot B ishlab chiqarildi	21 10	20 10	4 000 000
2025.03.15	Mahsulot C ishlab chiqarildi	21 10	20 10	4 550 000

XULOSA

Korxonaning ishlab chiqarish dasturini tuzish — uning iqtisodiy faoliyatini samarali rejalashtirish va rivojlantirishning asosiy bosqichlaridan biridir. Ishlab chiqarish dasturi orqali korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot turlarini, hajmini, sifat talablarini va ishlab chiqarish muddatlarini aniq belgilab oladi. Dastur tuzishda bozor talabi, mavjud resurslar, texnologik imkoniyatlar, raqobatchilar faoliyati va davlat siyosati kabi omillar chuqur tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirov A., Karimov I. “Korxonalarni boshqarish va rejalashtirish asoslari”, Toshkent, 2020 yil.
2. Axmedova G’.S. “Ishlab chiqarish iqtisodiyoti”, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent, 2019 yil.
3. Qaynarovich, C. U., Djo‘Rayevich, Z. A., & Lobar, M. (2024). Ishlab chiqarish sohasida xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 76-81.
4. Qaynarovich, C. U., Djo‘Rayevich, Z. A., & Lobar, M. (2024). Sanoat ishlab chiqarish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash usullari. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 108-112.
5. Zaripov, A. D., Avezov, A., & Saydullayeva, V. (2024). Investments and investment activity statistics. *Экономика и социум*, (1 (116)), 641-644.
6. Zaripov, A., Abduvoitova, N., & Ravufov, B. (2024). Theoretical foundations of management of the reproductive process in agriculture and investments in agriculture. *Modern Science and Research*, 3(2).
7. Муродов, М. М., Насуллаев, Х. А., Юсупова, Ф. Н., Халилов, Ш. У., Арабова, З. А., Тўраев, З. Б., ... & Муродов, А. М. (2023). Пахта тозалаш корхоналари чиқиндилари асосида целлюлоза синтез жараёни тахлиллари. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 314-322.
8. Ткачёва, А. (2018). Изображение смертных грехов в «книге о благой любви» хуана руиса. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 3(2 (67)), 42-46.
9. Maxmurovna, S. B. (2025). A linguoculturological analysis of italian proverbs related to the concepts of good and evil. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 3(4), 75-78.
10. Minavvarxon, U., & Muhammadaminovich, M. A. (2024). Paremiologik birliklarning tilshunoslikda tutgan o‘rni, maqsadi, vazifalari. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 3(26), 165-168.